(4). Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qullanma, T., “ITA-Press nashr”, 2018, 172-bet.

(5). Mahkamdjanov K., Salamov R., Ikramov I. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik, 1-qism, T., 2007, 347-bet.

(6). Mahkamjonov K.M., Rasulyeva M.Sh. va b. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi. T., “Ilm Ziyo”, 2006, 174-bet.

Xolmurodov Behzod Botir o‘g‘li (Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti)

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning asosiy jihatlari yoritib beriladi. Hozirgi zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil ta’limni rivojlantirish zarurati global o‘zgarishlar, raqobatbardoshlik va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlari bilan bog‘liqdir. Zamonaviy texnologiyalar va bilimga asoslangan jamiyatning shakllanishi mustaqil ta’limga ehtiyojni yanada oshirmoqda.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, mustaqil ta’lim, kredit-modul, texnologiya, onlayn platformalar, mobil ilovalar, masofaviy ta’lim, globallashuv.*

Холмуродов Бехзод (базовый докторант Бухарского государственного университета)

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация*. В статье рассматриваются ключевые аспекты современных технологий в развитии самостоятельного обучения студентов. В современном образовательном процессе большое значение имеет развитие у учащихся способностей к самостоятельному обучению. Современные технологии играют важную роль в эффективной организации этого процесса. Необходимость развития самостоятельного обучения в современной системе образования связана с глобальными изменениями, конкуренцией и потребностями личностного развития. Формирование общества, основанного на современных технологиях и знаниях, еще больше увеличивает потребность в самостоятельном обучении.*

Ключевые слова*: искусственный интеллект, самостоятельное обучение, кредитный модуль, технологии, онлайн-платформы, мобильные приложения, дистанционное обучение, глобализация.*

Kholmurodov Bekhzod (Basic doctoral student of Bukhara State University)

THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT LEARNING OF STUDENTS

Annotation*. The article discusses the key aspects of modern technologies in the development of independent learning for students. In the modern educational process, the development of students' abilities for independent learning is of great importance. Modern technologies play an important role in the effective organization of this process. The need to develop independent learning in the modern education system is associated with global changes, competition and the needs of personal development. The formation of a society based on modern technologies and knowledge further increases the need for independent learning.*

Keywords: *artificial intelligence, self-paced learning, credit module, technology, online platforms, mobile applications, distance learning, globalization.*

Kirish. Yurtimizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari talabalarining mukammal bilim olishlari uchun ko‘plab shart sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Oliy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lg‘usi mutaxassislarni o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish hamda innovatsion faoliyatda ijodiy yondashuvga tayyorlashdir. Ushbu maqsadga erishish faqatgina tayyor bilimlarni o‘qituvchidan talabalarga yetkazish bilan cheklanmasligi lozim. Chunki bu yondashuv talabalarni bilim iste’moli jarayonining passiv ishtirokchisiga aylantirishi mumkin. Zamonaviy davr talablari bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ravishda ularga ijodiy yondashuvchi kadrlarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu boisdan ta’lim jarayonlari shunday tashkil etilishi kerakki, bo‘lg‘usi mutaxassislar turli nazariy va amaliy muammolarni aniq ifodalay olishlari, ularning yechimlarini ilmiy va metodik jihatdan chuqur tahlil qilishi hamda eng maqbul natijalarni topishga qodir bo‘lishlari zarur. Bundan tashqari, topilgan yechimlarning to‘g‘riligi va samaradorligini ilmiy asosda isbotlash ham ular uchun muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari mavzusida O.A.Qo'ysinov ilmiy ish olib brogan [2]. Sh.I. Yo'ldoshev tomonidan talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rniga alohida e'tibor qaratilgan [3]. N.O.Jo'rayeva tomonidan "Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ayrim ko'rsatmalar" mavzusida ilmiy ish olib borilgan [1]. Bu ishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. D.R.Karimova "Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim" nomli uslubiy qo'llanmasida kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish va uni takomillashtirish haqida asosiy fikrlarni yozgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim olish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuvlar va tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Oliy malakali mutaxassislar, iste'molchilarning ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlanishi kerak, shu bilan birga, talabalar o'z ixtisosliklari bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni egallab, amaliy faoliyatga moslashishga tayyor bo'lishlari lozim [6].

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish muammo sifatida talqin etilganligi bois, 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ham [9] "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi" deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin (5).

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bogliq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ta'lim berish (olish)ning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e'tiborga olgan holda, guruh o'qishlaridan individual o'qishga o'tishni ko'zda tutadi. Bu jarayonni shunday tashkil etish lozimki, uning natijasida talabaning mustaqil bilim olishi va bu bilimlarini hayotga tatbiq etishga oid qobiliyati, ko'nikma va malakalari shakllansin [7].

Mustaqil ta'lim – bu talabalarning bilim olish jarayonida o'z-o'zini boshqarishga asoslangan, o'qituvchi ishtirokisiz yoki uning minimal nazorati bilan amalga oshiriladigan ta'lim shakli. Ushbu ta'lim shakli zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u talabalar bilim olish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishni va o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantiradi [10]. Mustaqil ta'limning asosiy xususiyatlari bu o'ziga xoslik, moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik va innovatsionlikdir. Bu xususiyatlar har bir talabaga individual yondashuv va o'quv materiallarini o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'zlashtirish imkoniyati, talaba o'z vaqtini, o'qish joyini va sur'atini mustaqil ravishda belgilash, talaba o'z ta'lim natijalariga javobgar bo'lib, bilim olish jarayonida o'zini nazorat qilish va zamonaviy texnologiyalar va raqamli resurslar orqali ta'lim olish imkoniyatini yaratadi [8].

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini rivojlantirishga yordam beruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Talabalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini individual ravishda qondirish uchun quyidagi texnologiyalar keng qo'llaniladi:

- Elektron o'quv platformalari (LMS – Learning Management Systems).
- Sun'iy intellekt yordamchilari (Chatbotlar, shaxsiy tutor tizimlari).
- Masofaviy ta'lim dasturlari (Coursera, edX va boshqa MOOC platformalari).
- VR va AR texnologiyalari (Virtual Reality/Augmented Reality).

Bu texnologiyalar orqali talabalar zamon talabiga javob bera oladigan bilim va ko'nikmaga ega bo'la oladi. Zamonaviy texnologiyalar orqali mustaqil ta'limni qanday rivojlantirish mumkin, texnologiyalar qanday imkonyatlarni yaratib beradi? Buni bir nechta usullarini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi, adaptiv ta'lim tizimlari. Bu tizimlar har bir talabaga individual dastur taklif etish imkonini beradi.

Ikkinchisi, sun'iy intellekt yordamida ta'lim. Ya'ni, talabalar qiyinchiliklarga duch kelganda tezkor javob beruvchi tizimlar.

Uchinchisi, raqamli kitoblar va resurslar. Talabalar istalgan vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

To‘rtinchisi, masofadan o‘qitish. Bu o‘qituvchilardan mustaqil ravishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Mustaqil ta’limni rivojlantirish bugungi kundagi global va mahalliy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni mustaqil fikrlovchi va innovatsion shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi [11]. Mustaqil ta’limning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unligi esa ta’lim jarayonini yanada samarali va qulay qiladi. Mustaqil ta’limni rivojlantirishning muhum sabablari quyidagilar:

Globallashuv va raqobatbardoshlik:

▪Dunyo bo‘ylab ish beruvchilar o‘z xodimlaridan ijodiy fikrlash, tez o‘rganish va muammolarni mustaqil hal qilishni talab qilmoqdalar.

▪Raqamli asrda muvaffaqiyat qozonish uchun doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish zarurati tug‘iladi.

Hayot davomida o‘qish konsepsiyasi (Lifelong Learning).

▪Zamonaviy jamiyatda bilim va ko‘nikmalarning tez eskirishi sababli, o‘quv jarayonini faqat ta’lim muassasalarida cheklab bo‘lmaydi.

▪Talabalar o‘zlarini qayta tayyorlash va yangi sohalarni o‘rganish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Shaxsiy rivojlanish va mas’uliyatni oshirish.

▪Mustaqil ta’lim talabalarda mas’uliyat hissi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va vaqtni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

▪Har bir inson o‘z qiziqishlariga mos keluvchi bilimlarni tanlab, shaxsiy rivojlanishga erishadi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish:

▪Internet va raqamli vositalar yordamida ta’lim resurslariga doimiy kirish imkoniyati mavjud.

▪Sun’iy intellekt va onlayn platformalar talabalarga individual ta’lim dasturlarini taklif qiladi, bu esa o‘zlashtirishni yanada samarali qiladi.

Ta’lim samaradorligini oshirish:

•Mustaqil ta’limga asoslangan o‘qitish modelida talabalar bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga faol ishtirok etadilar.

▪Bu usul o‘qituvchilar uchun ham yukni kamaytirib, talabalarning individual ehtiyojlariga e’tibor qaratishga imkon beradi.

Ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashuv:

▪Mustaqil ta’lim talabalarning jamiyatdagi roli va o‘rni haqida ongli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

▪Ish kuchi bozorida o‘z o‘rnini topish uchun yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil qilishda yangi avlod texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalari bu jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

▪Innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish.

▪Talabalar uchun texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil qilish.

▪Internet resurslaridan foydalanishni kengaytirish uchun infratuzilmani rivojlantirish.

Zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali talabalar nafaqat mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalariga ega bo‘lib qolmay, balki jamiyatning innovatsion rivojlanishiga ham o‘z hissalarini qo‘shishadi [8].

Ilg‘or texnologiyalar ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishi uchun muhim vosita bo‘lib, ular ta’lim jarayonini optimallashtirib, talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki raqamli iqtisodiyotga tayyor mutaxassislar yetishtirishda ham asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). N.O.Jo‘rayeva. Ta’lim jarayonida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ayrim ko‘rsatmalar. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”, Buxoro, 2021, № 3, 172-bet.

(2). Куйсинов, О.А. (2008). Касб таълими йўналиши бакалавр ўқитувчиларни тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий-методик асослари. Дис.... пед. фан. ном.

(3). Yo‘ldashev, S.I. (2022). Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o‘quv jarayonida ahamiyati va o‘rni. Uslubiy qo ‘llanma, T., O‘zMU.

(4). D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim. Uslubiy qo‘llanma, Toshkent, OOO “Complex Print”, 2021, 126 bet.

(5). “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.145/ https://lex.uz/

(6). Mansurov, T. (2024). Ta’limning formal, noformal va informal turlarining bilim olish jarayonidagi o‘ziga xos afzalliklari. “Педагогическая акмеология”, международный научно-методический журнал, 9(17).

(7). Мусаханова, Г. (2020). Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида. Экономика и инновационные технологии, (6), 229–235-betlar.

(8). Andriichuk T., Shostak I., Indrika R., Botuzova Y., Donii N. (2024). Training teachers to work in the conditions of digital transformation of education. AD ALTA. Journal of Interdisciplinary Research, (14), 194–198 p.

(9). Ma’murova Malohat Mansur qizi. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari pedagogik muammo sifatida. Международный научный журнал, № 8 (100), часть 1, «Новости образования, исследование в XXI веке», март, 2023.

(10). Xolmurodov, B. (2022). Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalar fanini o‘qitishning interfaol metodlari: “keys-stadi” metodi, Buxoro davlat Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

(11). Xolmurodov, B. (2022). “Matematika” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda kahoot platformasidan foydalanish. Buxoro davlat Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

Xurramova Sanobar Mahmatmurodovna (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: xurramovasanobar98@gmail.com)

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNING SHAKLLANGANLIK MEZONLARINING BA’ZI JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda talabalarda tanqidiy tafakkurning shakllanganlik mezonlarini aniqlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari, filkrlashning yangilik va asosiy namoyon bo‘lish shakllari kundalik o‘quv-tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari hamda muammolarni birgalikda hal qilishning mazmun-mohiyati tanqidiy fikrlash orqali yoritilib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *talaba, tanqidiy tafakkur, pedagogika, ta’lim, metod, zamonaviy, talab, shakllanganlik, mezon, echim, tarbiya, pedagogik texnologiya, ko‘nikma, bilim, kengaytirish, manba, ma’lumot, samaradorlik.*

Хуррамова Санобар Махматмуродовна (преподаватель Термезского государственного педагогического института; xurramovasanobar98@gmail.com)

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ У СТУДЕНТОВ :НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. *В статье освещаются возможности использования современных педагогических технологий в определении критериев сформированности критического мышления у современных учащихся, инновационных и основных форм проявления мышления, нестандартных решений повседневных образовательных задач, технологий развития критического мышления, сущности совместного решения проблем посредством критического мышления.*

Ключевые слова: *студент, критическое мышление, педагогика, образование, метод, современный, спрос, формирование, критерий, решение, воспитание, педагогическая технология, навык, знание, расширение, источник, информация, эффективность.*

Khurramova Sanobar Mahmatmurodovna (Teacher of Termiz State Pedagogical Institute;
e-mail: xurramovasanobar98@gmail.com)

SOME ASPECTS OF THE CRITERIA FOR THE FORMATION OF CRITICAL THINKING IN STUDENTS

Annotation. *The article highlights the possibilities of using modern pedagogical technologies in determining the criteria for the formation of critical thinking in students today, the innovative and main forms of manifestation of thinking, non-standard solutions to everyday educational problems, technologies for developing critical thinking, and the essence of joint problem solving through critical thinking.*

Key words: *student, critical thinking, pedagogy, education, method, modern, demand, formation, criterion, solution, upbringing, pedagogical technology, skill, knowledge, expansion, source, information, efficiency.*